

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jabborova Z. M, Ph.D

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, Jizzax Politexnika Instituti

Primqulova Z. F

Jizzax Politexnika Instituti, 2-kurs talabasi

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shart-sharoitlarni yaratish, uning huquqiy bazasini kengaytirish orqali uni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining¹ "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi Qonunning 18-moddasiga e'tibor qaratmoqchimiz, uning normalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarini tartibga solishda alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra: Davlat iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Tadbirkorlik subyekti mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishiga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

"Tadbirkorlik faoliyatida munosabatlar tizimi haddan tashqari murakkab bo'lib, bunda o'zaro bog'liq ko'plab elementlar amal qiladi va ular, tadbirkorlik faoliyati tizimidagi insonlar faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bu to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun uni uch asosiy ko'rinishda tasvirlash maqsadga muvofiq: birinchisi, ishlab chiqarishni texnik qurollantirishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashuvi va mexanizatsiyalashuvi, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash sharoitlarini ifodalovchi texnik-texnologik munosabatlar, ikkinchisi, mulkiy munosabatlarni, hamda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasini, zamonaviy boshqaruv elementlarini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar; uchinchisi, mehnat jamoasida qulay ma'nnaviy-psixologik muhitni shakllantirish bo'yicha munosabatlarni umumlashtiruvchi shaxslararo (ijtimoiy-psixologik) munosabatlardir. Shuni e'tirof etish lozimki, yuqoridagi munosabatlar ko'rinishlari bir vaqtning o'zida inson faoliyatining natijasi va asosi hisoblanadi".

Mamlakat iqtisodiyoti o'sish sur'atlarini jadallashtirishda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqali aholi ehtiyojlarini qondirish, ularning daromadlarini oshirish masalalarini hal etish, farovon yashashini ta'minlash, bandlik, sog'lom raqobat muhitini yaratish, bozordagi talab va taklifga samarali ta'sir ko'rsatish, ayollar va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanganligi bu boradagi iqtisodiy ko'rsatkichlardan namoyon b o'lmoqda.

Innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning afzalliklari va kamchiliklari mavjud (1-jadval).

¹ O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/acts/2006789>

1-jadval Innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning afzalliklari va kamchiliklari²

Innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning afzalliklari	Innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning kamchiliklari
Biznesni tashkil etishda davlat tomonidan ro'yxatga olishning yengilligi	Moliya-xo'jalik, innovatsion va boshqaruv funksiyalarining qo'shib olib borilishi
Bankda hisob varaqni ochish yengilligi	Shaxsiy tadbirkorlikni amalga oshirishda kredit olish uchun garov masalasi murakkabligi
Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi va soliq stavkalarining pastligi	Tashqi moliyalashtirish manbalarini topishning murakkabligi
Menejmentning soddaligi va buning uchun chiqimlarning kamligi	Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulot uchun mijoz topishning qiyinligi
Hisobotlarning soddaligi	Majburiyatlar bo'yicha to'liq shaxsiy mas'uliyat
Biznesni yuritishda mustaqillik va yuksak samaradorlikka erishish uchun motivatsiyaning kuchliligi	

Bu borada yutuqlar bilan birgalikda bir qator muammolar ham mavjud: jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlari ajratilishining kechiktirilishi, mehnatni tashkil qilishdagi nomuvofiqliklar, motivatsiyaning yo'qligi ish bajarilishini kechiktirmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yirik korxonalar, femer va dehqon xo'jaliklari bilan kooperativ tizimli aloqalarni o'rnatish mexanizmlari tizimli yo'lga qo'yilmagan. Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlarining kichik biznes vakillari bilan o'zaro aloqalari yetarli yo'lga qo'yilmaganligi va boshqalar³.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash juda muhim hisoblanadi. Tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun kreditlarning ma'qul foizlarda berilishi, investitsiyalarni bu soha uchun yanada keng jalb qilish, soliqlar borasida imtiyozlarni yanada kengaytirish, hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida yengilliklar berish muhim obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqr tarkibiy o'zgarishlar, aholi daromadlarining o'sishi, aholining ish bilan bandligini oshirish, tadbirkorlik faoliyati samaradorligi orqali yangi ish o'rinalarini yaratish, ish bilan bandlikning turli shakllarini rivojlantirishga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi «Har bir oila –tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risidagi PQ 3777–son qarori ijrosi doirasida⁴ 47 mingdan ortiq fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlariga qariyb bir trilliondan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilgan. Mazkur kreditning yillik 7 foiz stavkada, imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'limgan muddatga, kredit hisobiga amalga oshiriladigan loyihaning biznes rejasiga muvofiq, o'zini-o'zi qoplash jihatlaridan 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 5 yil muddatgacha ajratilayotganligi yoshlari, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni tadbirkorlikka qamrab olishga xizmat qilmoqda.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim jihatlaridan biri oilalardagi ishsiz oila a'zosini ish bilan ta'minlash imkonini oshirishdir. Shu tufayli oxirgi yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlikni, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

² Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. Darslik-T.: Fan, 2019. -480 b.

³ Jabborova Z.M. Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, 2019- yil. 6-son. 80-bet

⁴ Bank axborotnomasi №4 (1193) 2019-yil 24-yanvar,-B.3.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rasulova S., Jabborova Z. PRINCIPAL DIRECTIONSON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //International Finance and Accounting. – 2019. – T. 2019. – №. 3. – С. 18.
2. Жабборова З. М. О СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – №. 12-4. – С. 47-50.
3. Mamasodikovna J. Z. Development of the economy of the republic of Uzbekistan to support small business and private enterprise //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 1. – С. 22-26.
4. Mamasodikovna J. Z. DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO SUPPORT SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTERPRISE //A BIBLICAL NARRATIVE OF THE THEOLOGY OF WORK.
5. Mamasodikovna J. Z. DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO SUPPORT SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTERPRISE.
6. Жабборова З. М. КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛANIШИ //ИЖТОИY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 55-60.

